

**O‘zbekiston**  
**Metama’lumot**  
**Aholi**

**0. Asoslar**

**0.1 Qonuniy muhit**

**0.1.1 Statistika ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik**

**O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o‘rgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan “Davlat statistikasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o‘z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beadigan yangi “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo‘mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas’ul va ma’lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo‘yicha asosiy organ bo‘lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta’minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo‘mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma’muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan boshqa ma’lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o‘z vakolatlari doirasida boshqa organlardan ta’lab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig‘iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma’lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma’lumotlar tarqatish tizimi (k-UMTT) doirasiga to‘g‘ri keladigan va muvofiqlashgan bo‘lishi kerak.

**0.1.2 Ma’lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o‘rtasida ma’lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish**

### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarining boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

#### **0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi**

### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentabrda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, (13-band, §15) Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham (13-band, §11). Nihoyat, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

#### **0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish**

### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini

ta'minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining (UNECE) Statistik biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchliligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

## 0.2 Resurslar

### 0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron-hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan rukn)

Respublika darajasidagi demografik ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi, Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limi tomonidan amalga oshiriladi. Hudud darajasida mazkur ko'rsatkichlar hududiy statistika boshqarmalarining Demografiya va mehnat statistikasi bo'limi xodimlari tomonidan shakllantiriladi.

Qo'mitaning Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish va tahlil etish bo'limida 6 ta xodim, hududiy statistika boshqarmalarning Demografiya va mehnat statistikasi bo'limlarida o'rtacha 5 ta xodim faoliyat yuritadi. Aholi statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirishda qo'yilgan vazifalarni bajarishda xodimlar soni yetarli hisoblanadi.

Barcha xodimlar sohaga tegishli bilim va ko'nikmalarga ega. Xodimlar malakasini oshirishda muntazam ravishda Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistik tadqiqotlar Markazi yaqindan yordam beradi.

Bo'lim oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda elektron-hisoblash resurslari yetarli bo'lib, dasturiy ta'minot vaqti-vaqti bilan yangilanib, qo'yilgan va yuzaga keladigan talablarga javob beradi. Har bir ish joyi lokal tarmoqqa ulangan shaxsiy kompyuterlar bilan ta'minlangan. Elektron-hisoblash resurslari yetarlicha himoya bilan, shuningdek, favqulodda holatlarda statistik axborotlarni qayta tiklash tizimi bilan ta'minlangan.

Moddiy-texnik va boshqa resurslar qo'yilgan talablarga javob beradi.

Demografiya statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida ko'zda tutilgan ishlarni bajarish uchun taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar yetarli hisoblanadi.

## 1. Yaxlitlik

### 1.1 Kasbiy mahorat

#### 1.1.1 Statistikaning xolisligi

#### **O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg‘arazlikdir. Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo‘mitasining prinsiplari beg‘arazlikni ta‘minlashi belgilanga.

#### 1.1.2 Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika ma‘lumotlaridan davlat manfaatlarini ko‘zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma‘lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalarini va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma‘lumotlari faqat jamlanma statistika ko‘rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e‘lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo‘lgan statistika ma‘lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

#### 1.1.3 Statistika ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish yoki undan noto‘g‘ri foydalanish bo‘yicha sharh

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi statistik ma‘lumotlarni noto‘g‘ri talqin qilish va statistik ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanilganda o‘z izohini berishi mumkin.

## 1.2 Shaffoflik

#### 1.2.1 Statistika ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkoralikdir. Statistik ma‘lumotlarni yig‘ish, qayta ishlash va tarqatish bo‘yicha shartlar O‘zbekiston Respublikasining statistikaga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonun (2002 yil) va Qo‘mitaning 368-sonli qarori veb-saytga ([www.stat.uz](http://www.stat.uz)) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz) manzilida joylashgan ma‘lumotlar bazasida ham mavjud.

#### 1.2.2 Hukumatning statistik ma‘lumotlarga e‘lon qilinishidan oldin ko‘rishning ichki imkoniyati

##### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Hukumat Davlat statistika qo‘mitasining ma‘lumotlarini e‘lon qilinish vaqtidan oldin ko‘rish imkoniyatiga ega emas. Statistik ma‘lumotlarni tarqatishda Davlat statistika

organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi (“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 5-moddasi). Faqat qo‘mita Raisi statistik ma‘lumotlar e‘lon qilinishidan oldin ularni ko‘ra oladi.

### 1.2.3 Statistik ma‘lumotlarni belgilash

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Jamiyatga e‘lon qilinayotgan ma‘lumotlar ma‘lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

### 1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma‘lumotlar va statistik usullardagi asosiy o‘zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Yangi uslubiyatga o‘tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o‘zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo‘mitasi jamaotchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo‘mitasi o‘z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o‘zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko‘rsatmalarni joylashtiradi.

## 1.3. Axloq me‘yorlari

### 1.3.1 Xodimlarning axloqi bo‘yicha ko‘rmatma

#### **O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi**

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasi xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

## 2. Uslubiyat

### 2.1 Konsepsiya va ta‘riflar

#### 2.1.1 Konsepsiya va ta‘riflar (talab etiladigan rukn)

Foydalaniladigan konsepsiya va ta‘riflar umume‘tirof etilgan statistik tizimlarga asoslangan.

Aholi sonini hisoblashda quyidagi Xalqaro tavsiyalar qo‘llaniladi:

«Prinsipy i rekomendatsii dlya sistema statisticheskogo ucheta yestestvennogo dvijeniya naseleniya», utverjdenные Statisticheskoy komissiey OON na 45-oy sessii v 2014 g. (Trete peresmotrennoe izdanie, OON Nyu-York, 2015 g.).

«Rekomendatsii po statistike mejdunarodnoy migratsii» (Pervoe peresmotrennoe izdanie, OON Nyu-York, 1998 g.).

Mejdunarodnaya statisticheskaya klassifikatsiya bolezney i problem, svyazannyx so zdorovem, odobrennaya Mejdunarodnoy konferensiey po Desyatomu peresmotru MKB v 1989 godu i prinyataya Sorok tretey sessiey Vsemirnoy assamblei zdravooxraneniya.

Perepis naseleniya i jilishnogo fonda v Vostochnoy Yevrope, Kavkaze i sentralnoy Azii (Obzor praktiki perepisi raunda 2010 goda, OON Nyu-York, 2016 g.).

Rukovodstvo po ispolzovaniyu administrativnykh istochnikov i vyborochnykh obsledovaniy dlya izmereniya mejdunarodnoy migratsii v stranax SNG, YeEK OON, 2016.

Milliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 30 avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy tuzilish masalalarini hal etish tartibi to'g'risi»dagi 276-I son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining Oila Kodeksi (O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 30 apreldagi 607-I son qonuni bilan tasdiqlangan);

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (O'zbekiston Respublikasi 1998 yil 30 apreldagi 607-I son qonuni bilan tasdiqlangan);

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 14 noyabrdagi «Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarini tasdiqlash to'g'risida»gi 387-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirining 2012 yil 23 oktabrdagi «Fuqarolik holati dalolatnoma yozuvlarining shakllari va ularni to'ldirish bo'yicha qoidalarini tasdiqlash haqida»gi 234-mh son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2010 yil 27 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash muassasalarida tug'ilganlik haqidagi tibbiy ma'lumotnoma, perinatal o'lim va o'lim haqidagi tibbiy guvohnomalarni berish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida»gi 56-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 5 yanvardagi «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-4262-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining 1999 yil 9 apreldagi «O'zbekiston Respublikasida pasport tizimini amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi 55-son buyrug'i;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2013 yil 2 iyuldagi «Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy nizomni tasdiqlash haqida»gi 6-son qarori bilan tasdiqlangan «Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom»;

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2012 yil 31 maydagi «Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalarini va statistik hisob talonlarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanmani tasdiqlash to'g'risida»gi 8-son qarori bilan tasdiqlangan «Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda fuqarolik holati dalolatnomalarini va statistik hisob talonlarini kodlashtirish bo'yicha qo'llanma» (Davlat statistika qo'mitasining 2015 yil 23 yanvarda 2-son qaroriga muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan).

## 2.2 Statistik qamrov

### 2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan rukn)

#### 2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar doimiy aholi bo'yicha keltirilgan bo'lib, unga so'nggi aholini ro'yxatga olish vaqtida doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, vaqtincha yashamaydigan aholi soni ham kiritiladi;

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyatlar va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Ma'lumotlar qo'yidagi aholi guruhlarini qamrab oladi: aholining jinsi, yoshi, millati, shahar va qishloq (yashash joyi) bo'yicha.

Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasidagi doimiy aholini (istisnolarsiz) qamrab oladi.

Aholi soni hisobi oxirgi aholini ro'yxatga olish natijalariga asoslangan holda, unga har yili tug'ilganlar va ushbu hududga ko'chib kelganlar sonini qo'shish, o'lganlar va ushbu hududdan ko'chib ketganlar sonini ayirish orqali amalga oshiriladi. Tug'ilganlar va o'lganlar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar Adliya vazirligining joylardagi Fuqarolik holati dalolatnomalrini yozish (FHDYo) organlari, shuningdek, ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni to'g'risidagi statistik ma'lumotlar Ichki ishlar vazirligi hududiy Ichki ishlar boshqarmalari (bo'limlari)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari tomonidan taqdim etiladi. Mazkur statistik ma'lumotlar yosh-jins kesimida ishlab chiqiladi.

Aholi soni, aholining tabiiy harakati (tug'ilish, o'lim, nikoh va nikohdan ajralish) va migratsiya to'g'risidagi statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi barcha jismoniy shaxslar, shuningdek, vaqtinchalik mavjud bo'lmagan ya'ni, xorijiy davlat hududida vaqtinchalik yashayotgan yoki vaqtinchalik borganlarni ham yaxlit holda qamrab olingan.

#### 2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Statistik qamrovdan istisnolar mavjud emas

#### 2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Aniqlanmagan faoliyat mavjud emas

### 2.3 Tasniflash/sectorlar bo'yicha bo'lish

#### 2.3.1 Tasniflash/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

Aholining o'limi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni shakllantirishda 10-XKT xalqaro kasalliklar tizimi va o'lim sabablari tasniflagichidan foydalaniladi.

Hududlar bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirishda "O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy-hududiy tuzilmalarni (ob'ektlarni) belgilash tizimi" (MHOBT) idoraviy statistik tasniflagichidan foydalaniladi.

### 2.4 Hisob asosi

#### 2.4.1 Baholash (ma'lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

Hisobning asosiy birligi - kishi

#### 2.4.2 Hisoblash asoslari (ma'lumotlar rukniga aloqador sifatidagi talab etiladigan rukn.)

Tug'ilganlar, o'lganlar, tuzilgan nikohlar va nikohdan ajralishlar hisobi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYo) organlari (Adliya vazirligi tizimidagi) tomonidan qayd etilgan dalolatnoma yozuvlari asosida yuritiladi.

Migratsiya hisobi hududiy Ichki ishlar boshqarmasi (bo'limi)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlari (Ichki ishlar vazirligi tizimidagi) tomonidan rasmiylashtiriladigan ko'chib kelish va ko'chib ketishni statistik hisobga olish talonlari asosida yuritiladi.

#### 2.4.3 Yalpi/sof ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi (tavsiya etilgan rukn)

Yil oxiriga aholi soni hisobi hisobot yili boshidagi aholi soniga tug'ilganlar va ko'chib kelganlar sonini qo'shish hamda o'lganlar va ko'chib ketganlar sonini ayirish orqali hisoblanadi.

### 3. Aniqlik va ishonchlik

#### 3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar

##### 3.1.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni to'plash dasturi (talab etiladigan rukn)

Aholi statistikasining asosiy manbasi – joriy hisob (dalolatnoma yozuvlari va kelish va ketish talonlari) va tanlama kuzatuvlar hisoblanadi.

Demografik jarayonlarning joriy hisobi – tug'ilganlar, o'lganlar, kelganlar, ketganlar, qayd etilgan nikohlar va ajrimlarning joriy hisobini yuritish hisoblanadi.

Aholi tabiiy harakati va migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Dastlabki ma'lumotlar tizimli ravishda choraklik davriylikda hisoblanadi. Hisoblangan natijalar kuzatiladi va statistik jarayonlarda hisobga olinadi. Aniqlik va ishonchlik parametrlari aholi sonini yillik va choraklik davriylikda hisoblashda qo'llaniladi.

##### 3.1.2 Ta'rif, statistik qamrov, tasniflagich, baholash va boshlang'ich ma'lumotlar hisobining aniq davri (tavsiya etiladigan rukn)

Boshlang'ich ma'lumotlar statistik qamrov, tasniflagich, baholash va hisobning aniq davriga nisbatan talab etiladigan parametrlar yetarlicha yaqindir.

Tug'ilish, o'lim, nikoh tuzish va nikohdan ajralish holatlari Adliya vazirligining Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlarida (FHDYo) qayd etilishi majburiydir.

Jarayonlarning absolyut soni tug'ilish, o'lim, tuzilgan nikoh va ajrimlar to'g'risidagi dalolatnomalari yozuvlarining ikkinchi nusxalaridagi ma'lumotlarni statistik jarayonlarni qayta ishlash asosida olinadi.

Migrantlarni joriy hisobga olish Ichki ishlar vizirligining hududiy Ichki ishlar



boshqarmalari (bo'limlari)ning Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limlariga yuklatilgan bo'lib, aholini yashash manzili va ko'chib kelish manzili bo'yicha ro'yxatga olishni amalga oshiradi. Statistik kuzatuvlar doimiy yashash joyini o'zgartirgan holatda hisobga olinadi.

O'lganlarning o'lim sabablari bo'yicha hisobini yuritishda Xalqaro kasalliklar tizimi va salomatlik bilan bog'liq muammolar statistik tasniflagichidan foydalaniladi. O'ninchi qayta nashr.

### 3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning tayyorlanish muddatlari (tavsiya etilgan rukn)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi ularni o'z vaqtida olinishini ta'minlaydi.

Boshlang'ich ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasi tomonidan Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda chorak yakunlari bo'yicha respublika va hududlar kesimida ishlab chiqiladi.

Aholining tabiiy harakat to'g'risidagi yillik ma'lumotlar jarayon sodir bo'lgan vaqtda, oylik ma'lumotlar jarayon ro'yxatga olingan vaqt bo'yicha hisobga olinadi. Aholi soni hisobi har yili 1 yanvar holatiga so'nggi aholini ro'yxatga olish natijalariga asoslanib, tug'ilganlar va shu hududga ko'chib kelganlar sonini qo'shish, o'lganlar va shu hududdan ko'chib ketganlar soni ayirish orqali amalga oshiriladi.

## 3.2 Birlamchi ma'lumotlarni baholash

### 3.2.1 Birlamchi ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan rukn)

Olingan ma'lumotlar tahlil qilinadi, hududiy statistik boshqarmalari va Davlat statistika qo'mitasi tomonidan majburiy nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yxatga olishda xatoliklar yuzaga kelganda, ma'lumotlarga aniqlik kiritiladi.

## 3.3 Statistik usullar

### 3.3.1 Birlamchi ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar rukniga aloqador rukn sifatidagi talab etiladigan rukn.)

Aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi doimiy aholisini (istisnalarsiz) qamrab oladi.

Aholi sonining joriy hisobi oxirgi aholini ro'yxatga olish natijalariga asoslangan holda, unga har yili tug'ilganlar va ushbu hududga ko'chib kelganlar sonini qo'shish, o'lganlar va ushbu hududdan ko'chib ketganlar sonini ayirish orqali amalga oshiriladi.

Qo'llanilgan statistik usullar statistik jarayonlarning asoslanganligiga mos bo'lib, ma'lumotlarni qayta ishlashda xatoliklarni minimumgacha tushirish imkonini beradi.

Ma'lumotlarni tayyorlash jarayoni qayta ishlash jarayonida xatoliklarni minimumgacha olib keladi, ya'ni ma'lumotlarni kodlashtirish, tahrirlash va jadvallar tayyorlashdagi xatoliklarni kamaytirishda.

### 3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar rukniga aloqador rukn sifatidagi talab etiladigan rukn.)

Ma'lumotlarga tegishli tuzatish va o'zgartirish kiritishda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika ko'mitasi tomonidan tasdiqlangan Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'yicha uslubiy Nizom, Asosiy demografik ko'rsatkichlarni shakllantirishda statistik hisob talonlari va fuqarolik holati dalolatnomalaridagi ma'lumotlarni kodlashtirish bo'yicha qo'llanmalar asosida amalga oshiriladi.

### 3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

#### 3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan rukn)

Muntazam ravishda baho va hisobot ma'lumotlarini o'zaro taqqoslash ishlari amalga oshiriladi. Dastlabki va yakuniy ma'lumotlar orasidagi farq uncha katta emas.

#### 3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan rukn)

Oraliq va yakuniy ma'lumotlar doimiy ravishda baholanadi va taqqoslanadi. Yil yakunlari bo'yicha ro'yxatga olingan tug'ilganlar va o'lganlar (shu jumladan, 1 yoshgacha bo'lgan bolalar) soniga hodisa sodir bo'lgan vaqt bo'yicha aniqlik kiritiladi.

#### 3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlar va boshqa muammolarni baholash. (tavsiya etiladigan rukn)

*[Izuchenie statisticheskix rasxojdeniy i drugix potentsialnyx pokazateley nalichiya problem v vychodnyx statisticheskix dannyx.]*

Oraliq ma'lumotlardagi statistik farqlar baholanadi va tadqiq etiladi. Tayyorlanuvchi statistik ma'lumotlardagi statistik farqlar va boshqa potensial muammolar mavjudligi o'rganiladi. Ilgari chop etilgan ma'lumotlarda farqlar aniqlangan hollarda ushbu ma'lumotlarga keyingi nashrlarda tegishli o'zgartirishlar kiritiladi.

### 3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

#### 3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan rukn)

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil etish tizimli ravishda choraklik davriylikda amalga oshiriladi va uning natijalari ichki statistika ishlarida inobatga olinadi.

Yillik yakuniy ma'lumotlarda aholi tabiiy harakati koeffitsientlariga, go'daklar o'limi koeffitsientiga, yil boshiga aholi soni va yil uchun o'rtacha aholi soniga aniqlik kiritiladi.

## 4. Amaliy ahamiyati

### 4.1 Davriylik va muddatlilik

#### 4.1.1 Davriylik (kerakli rukn)

Davriylik va muddatlilik ma'lumotlarni tarqatishning umume'tirof etgan standartlariga javob beradi.

Aholining tabiiy harakati va migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar oylik davriylikda yig'iladi.

Aholining tabiiy harakati va migratsiyasi bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik davriylikda chop etilib, XV MTUT talablariga mos keladi.

#### 4.1.2 Muddatlilik (kerakli rukn)

Choraklik davriylikdagi dastlabki ma'lumotlar hisobot davridan keyingi oying 10-kuni tayyorlanadi.

Hisobot davri uchun respublika, viloyat, tuman va shahar kesimida aholi soni to'g'risidagi yillik ma'lumotlar hisobot davridan keyingi yilning aprel oyida tayyorlanadi.

Hisobot davri uchun respublika, viloyat, tuman va shahar kesimida aholining yosh-jins tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar hisobot davridan keyingi yilning iyul oyida tayyorlanadi.

Respublika va viloyatlar kesimida barcha demografik ko'rsatkichlar hisobot davridan keyingi yilning avgust oyida tayyor bo'ladi.

### 4.2 Taqqoslash

#### 4.2.1 Ichki taqqoslash (ma'lumotlar rukniga aloqador kerakli rukn)

Statistik ma'lumotlar vaqt bo'yicha ichki kelishilganlik bilan tavsiflanadi.

#### 4.2.2 Vaqt bo'yicha taqqoslanishi (tavsiya etilgan rukn)

Ma'lumotlarning yetarli vaqt oralig'i uchun dinamik qatorlari mavjud. Dinamik qatorlar 1991 yildan boshlanadi hamda <http://stat.uz/ru/statinfo/demograficheskie-dannye> elektron manzilida joylashtirilgan.

#### 4.2.3 Sektor yoki sohalar o'rtasida taqqoslash (tavsiya etilgan rukn)

Statistik ma'lumotlar boshqa manbalar (Sog'liqni saqlash idoralari, Ichki ishlar organlari va boshqa organlar)dan olingan ma'lumotlar bilan solishtiriladi.

### 4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

#### 4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish grafigi (kerakli rukn)

Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish muddatlari oldindan aniqlanadi. Dastlabki va yakuniy ma'lumotlarni tayyorlash muddatlari har yili ishlab chiqiladigan Davlat statistika ishlari Dasturida belgilab qo'yiladi.

#### 4.3.2 Dastlabki yoki qayta ko'rib chiqiladigan ma'lumotlarni belgilash (kerakli rukn)

Ma'lumotlarni tarqatishda foydalanuvchilarga ma'lumotlar dastlabki yoki yakuniy ekanligi to'g'risida axborot beriladi.

Dastlabki ma'lumotlarni chop etishda tegishli qaydlar ko'rsatiladi.

#### 4.3.3 Qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni o'rganish va tahlil qilish natijalarini e'lon qilish (tavsiya etilayotgan rukn)

Yakuniy ma'lumotlar dastlabki ma'lumotlar bilan solishtirilib tahlil qilinadi, bu esa dastlabki ma'lumotlarning ishonchliligini baholashda yordam beradi.

### 5. Ma'lumotlarni olishning qulayligi

#### 5.1 Ma'lumotlar

##### 5.1.1 Statistik ma'lumotlarni tarqatish shakllari (kerakli rukn)

Ma'lumotlar hududlar, shahar-qishloq, jinsi, yoshi va millati bo'yicha chop etiladi. Choraklik va yillik ma'lumotlar foydalanuvchilarga «O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O'zbekiston demografik yillik to'plami», «O'zbekistonning yillik statistik to'plami», «O'zbekiston raqamlarda», «O'zbekiston ayollari va erkaklari» va boshqa nashrlarda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz), [www.gender.uz](http://www.gender.uz) manzillaridagi rasmiy veb saytida joylashtiriladi.

##### 5.1.2 Ma'lumotlarni e'lon qilishning vositalari va shakli (kerakli rukn)

###### 5.1.2.1 Bosma shaklda – Yangi nashr

Ma'lumotlar foydalanuvchilarga bosma shaklda Davlat statistika qo'mitasining quyidagi nashrlari orqali tarqatiladi:

- «O'zbekistonning yillik statistik to'plami»
- «O'zbekiston demografik yillik to'plami»
- «O'zbekistonda mehnat va bandlik»
- «O'zbekiston ayollari va erkaklari»
- «O'zbekiston raqamlarda»
- «O'zbekiston hududlarining yillik statistik to'plami»
- «O'zbekistonda ijtimoiy rivojlanish va turmush darajasi» va boshqalar.

Shuningdek, ma'lumotlar davlat boshqaruv organlariga kelishilgan jadvallar shakllari hamda foydalanuvchilarning so'rovlari asosida taqdim etiladi.

###### 5.1.2.2 Bosma shaklda – Kunlik byulletenlar

###### 5.1.2.3 Bosma shaklda – Oylik byulletenlar

###### 5.1.2.4 Bosma shaklda – Choraklik byulletenlar

Choraklik ma'lumotlar «O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati» (rus tilida), «O'zbekiston Respublikasi statistik obzori» (o'zbek, rus va ingliz tillarida) nashrlari orqali tarqatiladi.

#### 5.1.2.5 Bosma shaklda - Boshqalar

Jadvallar foydalanuvchilar so'rovlari asosida taqdim etiladi.

#### 5.1.2.6 Elektron shaklda - Onlayn byulleten yoki boshqalar

Statistik ma'lumotlar va dinamik qatorlar elektron jadvallar ko'rinishida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy veb-saytida choraklik muddatda joylashtiriladi va yangilanib boriladi, shuningdek, [www.stat.uz](http://www.stat.uz) veb-saytida «O'zbekiston Respublikasi statistik obzori» nashr etiladi.

#### 5.1.2.7 Elektron shaklda - Boshqalar

### 5.1.5 So'rov asosida ma'lumotlarni tarqatish (tavsiya etilgan rukn)

Statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to'g'risida»gi qonuni, «O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida»gi Nizom, «Statistik ma'lumotlarni tayyorlash va tarqatish bo'yicha ishlarni tashkil etish» Tartibi va boshqa normativ xujjatlarga ko'ra foydalanuvchilarning so'rovlari asosida belgilangan tartibda taqdim etiladi. Statistik ma'lumotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslar va xalqaro tashkilotlarning rasmiy xati oraqali yozma so'rovlari bo'yicha bosma yoki elektron jadvallar, statistik to'plamlar, tezkor ma'lumotlar, shuningdek, ikki tomonlama axborot almashinuvi to'g'risidagi kelishuv asosida taqdim etiladi.

## 5.2 Metama'lumotlar

### 5.2.1 Konsepsiya, statistik qamrov, tasniflash, hisob asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar haqida hujjatlarni tarqatish (kerakli rukn)

Konsepsiya, statistik qamrov, tasniflash, hisob asosi, ma'lumotlar manbasi va statistik usullar haqidagi ma'lumotlar tarqatilayotgan statistik to'plamlarning asosiy ko'rsatkichlarga uslubiy tushuntirishlar shaklida keltiriladi.

Statistik ko'rsatkichlarning shakllanishi va hisobi bo'yicha uslubiy nizomlar <https://lib.stat.uz/ru/metodicheskie-materialy/demografiya-i-rynok-truda> elektron manzilida joylashtirilgan.

## 9.1 Oxirgi

### 9.1.1 Takomillashtirish rejasi – Oxirgi takomillashtirishlar

Aholi tabiiy va mexanik harakati hisobi dasturiy ta'minoti takomillashtirildi.  
Demografik jarayonlarni ro'yxatga olish yaxshilandi.

## 9.2 Umumiy

### 9.2.1 Takomillashtirish rejasi – Qisqa muddatli

### 9.2.2 Takomillashtirish rejasi – O'rta muddatli

Davlat statistika qo'mitasi, Adliya vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Ichki ishlar vazirliklari o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi bo'yicha ishlarni takomillashtirish.

Davlat statistika qo'mitasi va Adliya vazirligi, Davlat statistika qo'mitasi va Ichki ishlar vazirligi o'rtasida idoralararo elektron ma'lumotlar almashinuvini joriy etish.

## 9.3 Moliyaviy

### 9.3.1 Takomillashtirish rejasi – texnik/moliyaviy ko'makka talab – Qisqa muddatli

### 9.3.2 Takomillashtirish rejasi - texnik/moliyaviy ko'makka talab – O'rta muddatli

O'rta muddatli rejalarni amalga oshirishda, xalqaro tavsiyalarni o'rganish uchun texnik yordam zarur bo'ladi.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

**Aloqa bog'lash uchun shaxs 1**

*F.I.O.:* Berdi Qobil G'ulomovich  
qulov

*Lavozim:* Boshqarma boshlig'i

*Bo'linma:* Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi

*Bo'lim:*

*Departament:*

*Idora:* Davlat statistika qo'mitasi

*Manzil (1 satr):* Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy

*Manzil (2 satr):*

*Shahar/region:* Toshkent

*Mamlakat:* O'zbekiston

*Pochta indeksi:* 100192

*Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam* 998 71 2308065

*Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam* 998 71 2308153

*Elektron manzil:* Q.Berdikulov@stat.uz

**Aloqa bog'lash uchun shaxs 2**

*F.I.O.:* Dusna Sherzod Ergashevich  
ev

*Lavozim:* Bo'lim boshlig'i

*Bo'linma:*

*Bo'lim:* Demografik ko'rsatkichlarni shakllantirish bo'limi

*Departament:*

*Idora:* Davlat statistika qo'mitasi

*Manzil (1 satr):* Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy

*Manzil (2 satr):*

*Shahar/region:* Toshkent

*Mamlakat:* O'zbekiston

*Pochta indeksi:* 100192

*Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam* 998 71 2308067

*Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam* 998 71 2308153

*kodi/raqam*

*Elektron manzil:*

demografiya@stat.uz

**Aloqa bog‘lash uchun shaxs 3**

*F.I.O.:*

*Lavozim:*

*Bo‘linma:*

*Bo‘lim:*

*Departament:*

*Idora:*

*Manzil (1 satr):*

*Manzil (2 satr):*

*Shahar/region:*

*Mamlakat:*

*Pochta indeksi:*

[\*Vernutsya v nachalo dokumenta\*](#)